

### DEMOGRAFIK HOLAT



Doimiy aholi soni:  
33724,5  
ming kishi



2019 yil boshidan:  
469,0  
ming kishiga  
yoki 1,4 %ga  
oshdi



Shahar aholisi:  
17034,0  
ming kishi



Qishloq aholisi:  
16690,5  
ming kishi



Tirik tug'ilganlar soni:  
589,7  
ming nafar



Vafot etganlar soni:  
112,2  
ming kishi



Nikohlar soni:  
194,9  
ming birlik



Ajralishlar soni:  
23,6  
ming birlik


### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-sentabr, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.
<b>Doimiy aholi soni, davr oxiriga</b>	<b>33 085,7</b>	<b>33 724,5</b>
Tug'ilganlar	553,4	589,7
Vafot etganlar	112,6	112,2
Aholining tabiiy o'sishi	440,8	477,5
Kelganlar	121,7	117,6
Ketganlar	133,4	126,1
Migratsiya saldosini	-11,7	-8,5
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	196,0	194,9
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	23,8	23,6
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	22,5	23,5
o'lim	4,6	4,5
aholining tabiiy o'sishi	17,9	19,0
tuzilgan nikohlar	8,0	7,8
nikohdan ajralishlar	1,0	0,9

**Doimiy aholi soni**  
*(1 oktabr holatiga)*

	<b>2018 y.</b>	<b>2019 y.</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>33 085,7</b>	<b>33 724,5</b>	<b>101,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 861,3	1 889,8	101,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3 050,6	3 110,1	102,0
Buxoro	1 886,3	1 915,9	101,6
Jizzax	1 345,2	1 374,4	102,2
Qashqadaryo	3 195,1	3 261,2	102,1
Navoiy	975,0	992,4	101,8
Namangan	2 737,8	2 795,6	102,1
Samarqand	3 777,9	3 857,0	102,1
Surxondaryo	2 554,4	2 612,3	102,3
Sirdaryo	825,9	841,8	101,9
Toshkent	2 888,0	2 929,7	101,4
Farg'ona	3 665,6	3 733,0	101,8
Xorazm	1 825,4	1 856,4	101,7
Toshkent sh.	2 497,2	2 554,9	102,3


**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi  
(2019 yil 1 oktabr holatiga; respublika jami aholisiga nisbatan, %da)**



Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyatida 11,1 %ni, Qashqadaryo viloyatida 9,7 %ni va Andijon viloyatida 9,2 %ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil 1 oktabr holatiga Respublika doimiy aholi sonining 30,5 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,1 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,4 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2019 yil oktabr holatiga; jamiga nisbatan, % da)**




■ mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar      ■ mehnatga layoqatli yoshdagilar  
■ mehnatga layoqatli yoshdan kattalar

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 589,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,5 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar- sentabr oylarida 22,5 promille bo'lgan) kuzatildi.

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti  
(2019 yil yanvar-sentabr)**




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni  
(2019 yil yanvar-sentabr, ming kishi)



*Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-sentabr)




*Ma'lumot uchun: Adliya vazirligining Davlat xizmatlari agentligining FHDYO organlarida jami 606,3 mingta tug'ilganlik holati qayd etilgan bo'lib, shundan **589,7 mingtasi** 2019 yil yanvar-sentabr oylarida **tirik tug'ilganlar**, 5,5 mingtasi o'lik tug'ilganlar va 11,1 mingtasi 2019 yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tib, 2018 yilda tug'ilganlar, xalqaro tavsiyalarga asosan, 2018 yilning yakuniy ma'lumotlarida inobatga olingan.*



**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 112,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega tushganligi (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,6 promille bo'lgan) kuzatildi.


*Ma'lumot uchun: Adliya vazirligining Davlat xizmatlari agentligining FHDYO organlarida jami 116,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 112,2 mingtasi joriy yilda vafot etgan, 4,6 mingtasi 2019 yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tib, 2018 yilda vafot etganlar, xalqaro tavsiyalarga asosan, 2018 yilning yakuniy ma'lumotlarida inobatga olingan.*

**Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti  
(2019 yil yanvar-sentabr )**






O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni  
(2019 yil yanvar-sentabr, ming kishi)



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni  
(yanvar-sentabr)**




**Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti  
(2019 yil yanvar-sentabr holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)**




2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,6 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,8 %i - o'simtalardan, 6,4 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,1 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 5,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 58,7 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,0 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,8 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 2,1 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,7 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,5 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi  
(2019 yil yanvar-sentabr holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



**Hududlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha  
vafot etganlarning taqsimlanishi  
(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



**O'lim koeffitsentlari to'g'risida ma'lumot**  
(2019 yil yanvar-sentabr)



**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 477,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 36,7 ming kishiga (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 440,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 477,5 ming kishi



**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 194,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Qashqadaryo (7,0 %), Xorazm (4,2 %), Samarqand (3,4 %) va Farg'ona (2,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-sentabr)




**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 23,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Samarqand (8,8 %), Navoiy (7,6 %) va Andijon (6,9 %) viloyatlarida kuzatildi.




**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar  
va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti**

(2019 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahri (8,8 %) va Jizzax (3,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-sentabr)**



**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-sentabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 117,6 ming kishini (115,6 ming kishi respublika hududlaridan, 2,0 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 126,1 ming kishini (115,6 ming kishi respublika hududlariga, 10,5 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 8,5 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 11,7 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi

(ming kishi)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	121,7	117,6
Ko'chib ketganlar	133,4	126,1
Migratsiya saldosini	-11,7	-8,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Qashqadaryo (minus 4,9 ming kishi), Samarqand (minus 4,0 ming kishi), Toshkent (minus 3,5) viloyatatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 3,3 ming kishi) qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Toshkent shahrida (plus 19,3 ming kishi) kuzatildi.

## XORIJIY MIGRATSIYA

### O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-sentabr oylarida, jami xorijiy mamlakatlardan ko'chib  
kelganlarga nisbatan, %da)



## O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-sentabr oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun  
O'zbekiston Respublikasidan xorijiy  
mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni  
10472 kishi

1



57,4 %

2



37,3 %

3



0,9 %

4



0,8 %

5



3,6 %

**Hududlar kesimida xorijiy migratsiya**  
(2019 yil yanvar-sentabr holatiga, kishi)

	Xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni	Xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>1 971</b>	<b>10 472</b>	<b>-8 501</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144	2 898	-2 754
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	13	134	-121
Buxoro	19	117	-98
Jizzax	51	322	-271
Qashqadaryo	7	41	-34
Navoiy	77	1 262	-1 185
Namangan	46	94	-48
Samarqand	79	61	18
Surxondaryo	1	32	-31
Sirdaryo	82	236	-154
Toshkent	631	2 393	-1 762
Farg'ona	321	255	66
Xorazm	36	210	-174
Toshkent sh.	464	2 417	-1 953




**Poytaxtdagi demografik holat.** O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 2554,9 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 45,0 ming kishiga yoki 1,8 %ga o'sgan.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 37,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 19,7 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,7 ga (2018 yilning mos davrida 18,0 promille bo'lgan) o'sdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 11,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 454 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 6,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga kamaydi (2018 yilning mos davrida 6,4 promille bo'lgan).

### Toshkent shahri bo'yicha aholining tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan, promille)

	2018 yil yanvar-sentabr		2019 yil yanvar-sentabr	
Tug'ilish	18,0		19,7	↑
O'lim	6,4		6,2	↓
Tabiiy o'sish	11,6		13,5	↑




Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 25,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 4,1 ming kishiga o'sishi (2018 yilning mos davrida 21,5 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar- *sentabr* oylarida 14,9 mingta nikoh va 3,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,9 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga o'sdi (2018 yilning mos davrida - 7,7 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega (2018 yilning mos davrida 1,7 promille bo'lgan) o'sgan.

**Toshkent shahrida tuzilgan nikoh va ajrim**  
(1000 aholiga nisbatan, yanvar-*sentabr* holatiga, promille)



Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi  
(71) 230-80-65, 67